

Mening qobiliyatli farzandim asaridan

Men kelajakda qanday voqea-hodisalar yuz berishini oldindan bilish qobiliyatiga ega ekanimdan o'zim ham ba'zida hayratga tushaman. O'g'lim birovlarining devorlaridan chaqqonlik bilan o'tganida, u vaqti soati kelib Gannibal bo'ladi, u kabi Al'p tog'laridan epchillik bilan o'tib ketadi, ustimdan sakrayotganida esa, o'g'lim beliga qilich boylab, qator otlar ustidan sakragan Milosh Voynovich bo'ladi deb, o'zimni ovutar edim. Qurmag'ur qo'shnilarning tovuqxonalaridan tuxum o'g'irlab qochgan paytida esa uni Yevropani zabt etgan buyuk Napoleon bo'ladi, deb o'zimni yupatardim. Biroq tez orada u shunday noma'qul hunarlar ko'rsata boshladiki, men o'zimni ovutishga biror bahona, ovunch topa olmay xunob bo'lardim. Jumladan, u qo'shnilarning oynalarini chilparchin qilib sindiradi. Bu hali hech narsa emas, chunki hamma buyuk shaxslar bolaligida qo'shnilarning iynalarini sindirganlar.

Xullas, men undan nimalar kutishni ham bilmasdim. Uning qiliqlari bir-biriga o'xshamas edi. Bir kuni meni eng yaxshi pal'tom etagini qirqib, undan bayroq yasabdi. Uning ostiga u o'zining katta qo'shinini yig'ib, uyimni qurshab olib, hujum boshladi. Jangchilar na oynalar, na poliz ekinlarini pisand qilmay, "qal'a"ni zabt etdilar. So'ng ushbu g'oliblar haqiqiy xunrezlikni amalga oshirdilar, ya'ni barcha jo'jalarimning bo'ynini qayirib o'ldirdilar.

O'z-o'zidan ma'lumki, bu hodisa meni birinchi galda ota, so'ng jo'jalar egasi sifatida qattiq ranjitdi.

Ranjiganimni xotinimga bildirdim, o'z-o'zidan ma'lumki u ham ranjidi. Shuning uchun kechki payt, xuddi har qanday ranjigan ota va ona kabi, biz ham maslahatlashish uchun yig'ildik. Xotinim o'g'ilchamiz menga o'xshagani va o'ta qobiliyatli ekanini aytdi. Men esa uning gaplariga qo'shilgan holda, farzandimiz o'z imkoniyatlarini keskin tarzda namoyish qilib, ularni bekorga sarflayotgani va bularning oqibatida ulg'aygach, kelajakda buyuk shaxs bo'la olish layoqatini yo'q qilayotgani haqida aytdim.

Farzandimning kelajagi haqidagi tashvishlar meni maslahat olgani bizning eng taniqli pedagoglarimizdan biri, ma'rifat bo'yicha Kengash a'zosi, ta'limni qaytadan tashkil etish bo'yicha barcha komissiyalar a'zosi, ko'plab o'quv dasturlarining muallifi, bolalarni tarbiyalash Jamiyatining faxriy a'zosi, bulardan tashqari ko'plab ilmiy asarlar muallifi bo'lgan kishining uyiga borishga majbur qildi.

Men uni bezovta qilganimdan yomon pushaymon edim.

U meni kursiga taklif etdi. Endi o'tirmoqchi edim: nozik joyimga bir narsa qattiq sanchilganidan qichqirib yubordim. Uning oldida o'sha sanchilgan yerimni paypaslaganimdan juda xijolatda edim. Taniqli pedagog ham voyvoylagancha men ushlagan joylarimni paypaslab ko'rdi-da, so'ng:

- Ming bor uzr, bu katta o'g'limning qiliqlari, bu shumtaka juda sho'x bo'lgan! Bolasi qurmagur, kursingizga ignani tiqib qo'yganini qarang... U tez-tez shunday qilib turadi, buning uchun ma'zur tutasiz, -deydi. O'zimni bosdim-da, yana asta kursiga o'tirib, endigina maqsadimni tushuntirmoqchi bo'lib turganimda birdan qo'shni xona eshigining tepa qismidagi oynasi jaranglab, chilparchin bo'lib, oyog'im ostiga tufli uchib keldi.

- Jivko! – o'rnidan sapchib turdi pedagog janoblari. – Shayton urgur, bu nima qilganing!

Eshikning singan oynasi orasidan bir bolaning boshi ko'rindi va:

-Menga bufetning kalitini bermagani uchun onamni o'qqa tutayapman dedi.